

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**Qo'lyozma huquqida  
UO'K: 336.71-026.16(575.1)**

**HOSHIMOV JAHONGIR RAVSHANBEK O'G'LI**

**HUDUDLAR IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIV  
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNI RIVOJLANTIRISH  
MASALALARI**

**08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini  
olish uchun tayyorlangan  
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy maslahatchi:  
Karimqulov Jasur Imomboyevich,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor**

**Toshkent shahri – 2025-yil**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....</b>	<b>18</b>
1.1-§. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning mazmun-mohiyati va ilmiy-nazariy qarashlari.....	18
1.2-§. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilishning normativ-huquqiy asoslari .....	42
1.3-§. Xorijiy investitsiyalarni jalg qilishning uslubiy masalalari .....	54
Birinchi bob bo‘yicha xulosalar .....	71
<b>II BOB. HUDUDLAR IQTISODIYOTIGA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARNI.....</b>	<b>72</b>
2.1-§. Hududlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilishning joriy holati va o‘zgarish tendensiyalari tahlili .....	72
2.2-§. Hududlar iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilishga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili .....	94
2.3-§. Fond bozori orqali xorijiy investitsiyalarni jalg qilishning amaldagi holati tahlili .....	108
2.4-§. Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning hozirgi holati tahlili .....	126
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar .....	144
<b>III BOB. TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBALARI .....</b>	<b>145</b>
3.1-§. Taraqqiy etgan mamlakatlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalg etishning ustuvor yo‘nalishlari .....	145
3.2-§. Rivojlanayotgan mamlakatlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilishning o‘ziga xos xususiyatlari .....	169
3.3-§. Ilg‘or xorij tajribalaridan O‘zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari.....	180
Uchinchchi bob bo‘yicha xulosalar.....	193
<b>IV BOB. HUDUDLAR IQTISODIYOTIGA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNI TAKOMILLASH-TIRISH MASALALARI.....</b>	<b>195</b>
4.1-§. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalg etishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari .....	195
4.2-§. Xorijiy investitsiyalar ko‘لامи va oqimini oshirishning konseptual jihatlari.....	206
4.3-§. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilishni rivojlanirish yo‘llari .....	221
To‘rtinchi bob bo‘yicha xulosalar .....	248
<b>XULOSA.....</b>	<b>251</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>256</b>
<b>ILOVALAR.....</b>	<b>268</b>

## **KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Jahon mamlakatlari tajribasi ko'rsatishicha, mamlakat iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalg qilish iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mazkur masala, birinchi navbatda, mamlakatning investitsion jozibadorligiga, xorijiy investorlarga yaratilgan shart-sharoitlarga va mamlakatda olib borilayotgan investitsiya siyosatiga borib taqaladi. Mamlakat iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning faol jalg qilinishi mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish va aholi farovonligini ta'minlash, ishlab chiqarishda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va uni intensiv rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish orqali raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, mineral xomashyo va qishloq xo'jaligi resurslarini chuqur qayta ishlash bo'yicha yuqori texnologik ishlab chiqarish, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlarini yaratadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi (UNCTAD) ma'lumotlariga ko'ra, "2023-yilda dunyoda global to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 3 foizga o'sib, 1,37 trillion AQSH dollarni tashkil qilgan"<sup>1</sup>. "Ammo, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga jalg qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi 9 foizga kamayib, 841 milliard AQSH dollarni tashkil etgan"<sup>2</sup>. Shu sababdan ham jahonning aksariyat mamlakatlari xorijiy investitsiyalarni, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalg qilish orqali intensiv rivojlantirish asosida iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashga asosiy e'tiborini qaratmoqda.

Jahon amaliyotida mamlakatga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng ko'lamda jalg qilish, xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalg qilishni rag'batlantirish, mamlakatning investitsion salohiyatidan unumli foydalanish, hudud iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalg qilish bo'yicha

<sup>1</sup>World Investment Report 2023. <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2023>

<sup>2</sup> <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2023>